



QO'QON XONLIGINING TUGATILISHI ARAFASIDAGI IJTIMOIY VA SIYOSIY AHVOLI

Sulaymonov Boburjon Dilmurod o'g'li

FarDU tarix yo'nalishi talabasi

+998906336208, boburjonsulaymonov8@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15496058>

ARTICLE INFO

Received: 15th May 2025

Accepted: 19th May 2025

Published: 23rd May 2025

KEYWORDS

Qo'qon xonligi, Chor Rossiyasi, soliq, qo'zg'olonlar, ijtimoiy va iqtisodiy ahvol, Mirzo Olim, Muhammad Aziz Marg'iloniy, Xudoyorxon.

ABSTRACT

Bir paytlar O'rta Osiyodagi 3 davlatning eng yirigi bo'lgan Qo'qon xonligi tugatilishi arafasida juda og'ir ahvolga tushib qolgan edi. Buning asosiy sabablari, birinchidan soliqlarning ko'pligi bo'ladigan bo'lsa, ikkinchidan esa hukmdorning qaramona siyosati edi. Xudoyorxonning Rus hukumati bilan do'stona munosabat olib borishga intilishi va unga juda ko'plab sharoitlar yaratib berganligi keyinchalik ularning bu hududga bostirib kirishiga zamin yaratdi. Xonlikning siyosiy jihatdan tanazzul holatiga kelib qolganligi Rus hukumati uchun qo'l keldi. Natijada xonlik tugatildi va uning o'rniga Ruslar hokimiyati o'rnatildi.

Qo'qon xonligi – XVIII-XIX asrlarda O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan davlat. Bu davlatning hukmronlik davrida mamlakatning ijtimoiy va siyosiy ahvoriga ba'zi bir olimlar tomonidan ijobiy baho berilsa, ba'zi bir olimlar, ya'ni asosan tarixchi olimlar salbiy baho berishadi. Buning asosiy sababi davlatning turli davrda turlicha mavqega, kuch-qudratga ega bo'lganligidir. Qo'qon xonligi tarixini o'rganishni 3 davrga bo'lsak, bular:

1. XVIII asr boshidan 1800-yillargacha bo'lgan davr. Ya'ni bu davrda davlat tashkil topdi. Mustaqillik uchun chegara davlatlar bilan kurashlar olib bordi.
2. 1800-yildan 1842-yilgacha bo'lgan davr. Bu davrda hukmronlik qilgan 3 hukmdor davrida davlat har tomonlama gullab yashnadi.
3. 1842-yildan xonlikning tugatilishigacha bo'lgan davr (ya'ni 1876-yilgacha). Bu davr haqiqiy tanazzul davri bo'ldi. Bunga esa ichki ziddiyatlar, bu davrda hukmronlik qilgan hukmdorlarning mardonavor siyosat olib bormaganligi, rus bosqini va qipchoqlar ta'siri sabab bo'lgan edi.

Quyida biz shu tanazzul davrining xonlik tugatilishi arafasidagi ijtimoiy va siyosiy ahvoriga to'xtalib o'tmoqchimiz. Bizga bu nima uchun kerak? Chunki biz xonlikning tugatilishi arafasidagi uning siyosiy va ijtimoiy ahvolini bilsakgina uning nega tugatilgani, tugatilmasa ham bo'larmidi? Yondosh davlatlar nega bunga qarshi chiqmadi? – degan savolarga javob topa olamiz. Dastlab biz bu davrdagi xonlik ijtimoiy ahvoriga to'xtalib o'tmoqchimiz.

Dastlab aholi ijtimoiy holatiga kelsak, bu haqida amerikalik sayyoh Yujin Skayler ma'lumot beradi. U 1870-yil apreldan 1876-yil iyulgacha AQSH ning Sank-Peterburgdagi diplomatik

missiyasi kotibi etib tayinlangan va aynan shu davrda u O'rta Osiyoga sayohat qilgan edi¹. U bu hudud aholisi haqida juda qiziqarli va muhim ma'lumotlar yozib qoldirgan. U yozadi, "Keyin boshqa bir eshikdan hatlab, ikki tomondan boloxona ayvon uyli boshqa bir hovliga boshlashdi. Bu tashqari yoxud erkaklar hovlisi, eshik osha torgina yo'lak yuqoridagisi esa ichkari yoxud ayollar hovlisidir"². Bundan ko'rinib turubtiki, uylar islom dini qonun-qoidasi asosida, ayollar va erkaklarniki alohida qilib qurilgan. Uydagi hovuz haqida ma'lumot berib, undan ham tahorat olishda va ham ichishda foydalanishgan. Aholi bu davrda paypoq kiymagan. Uyda oyoqyalang yurishgan, ko'chaga mahsi kiyishgan. "Pilta miltiq eng keng tarqalgan o'qotar qurol bo'lib, undan durustgina otadigan kishilarni ko'rdim" – deb yozadi Yujin Skayler. Bundan ko'rinib turibdiki, aholining asosiy o'qotar quroli pilta miltiq, jang paytlarida oddiy mehnat qurolari bilan qurolanishar edi. Endi ancha zamonaviy qurollangan rus askarlariga qarshi bunday qurollar bilan qarshilik ko'rsatish, albatta, mushkul ish edi.

Bundan tashqari, aholini og'ir ahvolga solib qo'ygan yana bir sabab bu – soliq siyosati edi. Qo'qon xonligida hukmdorlik qilgan so'nggi yirik hukmdor Xudoyorxon (3-hukmronlik davri 1865-1875-yillar) davrida bu juda avjiga chiqadi. Bunga eng asosiy sabab Rus bosqinlari natijasida shimoldagi yerlaridan ajralib, xonlik faqat Farg'ona vodiysi bilan cheklanib qoladi³. Hududning qisqarishi esa soliqlarni sonini ko'paytirish yo'li bilangina davlat xazinasini to'ldirish mumkinligini ko'rsatar edi. Agar sonini emas soliq miqdorini oshirilsa bu albatta qo'zg'olonga sabab bo'lishi mumkin edi. Shuning uchun ham soliqlar miqdori emas, soni oshirildi. Bu davrda Qo'qon xonligida 90 ta soliq bo'lganligi hujjatlarda keltirib o'tilgan⁴. Nima bo'lganda ham, soliqlar haddan tashqari ko'pligi aholi noroziligini keltirib chiqargan sabablardan biri edi. Bundan tashqari, Xudoyorxon mol-u dunyoga haddan tashqari hirs qo'ygan, faqat xazinani boyitish ilinjida yashar edi. Bunday razil axloqi beklar, boylar va hatto rayiatning ham noroziligini keltirib chiqaradi⁵. Qo'qon xoni Xudoyorxon saroyida mushrif lavozimida ishlagan Mirzo Olimning "Xudoyorxon ayshu-nishot birla bir-ikki yil tinchlik birlan umr o'tkazdi"⁶ degan fikrlari ham fikrimiz isbotidir. Xudoyorxon xalqni o'ylab ish qilmadi. Faqat o'z boyligini ko'paytirish harakatida, ayshu ishratni lozim ko'rdi. Bu haqida XIX asr o'rtalarida yashagan mirza Muhammad Aziz Marg'iloniy "Urussiya bilan urushmayman, boji xiroj berib turishni xohlayman. Pulni ko'paytirsam bo'lar ekan. Boshqa tomondan keladigan yov yo'q. Bohuzur ayshu ishrat qilib yotaman, deb muqarrar qilibdi"⁷ degan ma'lumotni keltirib o'tadi. U faqat o'zini o'ylab, xalqning qaram bo'lib qolishini o'ylamadi. Muhammad Aziz Marg'iloniyning "boshqa tarafdin keladigan yov yo'q" degan fikrni keltirishi ham muhim. Nega boshqa tarafdin xavf yo'q edi. Buni bir necha sabablari mavjud:

Birinchidan, Rossiya 1873-yil Angliya bilan bitim tuzgan edi. Unga ko'ra Angliyaning Afg'oniston bilan cheklanishiga, O'rta Osiyoga tajovvuz qilmasligiga kelishib olingan edi.

¹ Скайлер Ю. Туркистон: Россия Туркистони, Кукон, Бухоро ва Гулжага саёхат кайдлари. / Тарж. Саидбобоев З.А. – Тошкент: "Ўзбекистон" НМИУ, 2019. – Б. 10.

² Скайлер Ю. Туркистон: Россия Туркистони, Кукон, Бухоро ва Гулжага саёхат кайдлари. / Тарж. Саидбобоев З.А. – Тошкент: "Ўзбекистон" НМИУ, 2019. – Б. 91.

³ Муртазаева Р.Х. Ўзбекистон тарихи II жилд. – Тошкент: 2015. – Б. 35.

⁴ Жувонмардиев А. XVI-XIX асрларда Фарғонада ер-сув масалаларига доир. - Тошкент: "ФАН", 1965. – Б. 33-35.

⁵ Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш: (XVII-XX аср бошлари) // Жамоатчи муҳаррир: М.Саъдий. – Тошкент: "Шарқ", 1998. – Б. 357.

⁶ Мирзоолим Мушриф. Ансоби ус-салотин ва таворих ул-хавоҳин: "Султонлар насаби ва хоконлар тарихи" (Кукон хонлиги тарихи). – Тошкент: "Ғафур Ғулом", 1995. – Б. 82.

⁷ Ҳ.Содиқов ва бошқ. Ўзбекистоннинг янги тарихи. – Тошкент: "Шарқ", 2000. – Б. 147.

Ikkinchidan, yana xavf solishi mumkin bo'lgan Eron bu davrda Rossiya bilan urushlar, qo'zg'olonlar (masalan, Bobiylar qo'zg'oloni) band va Buyuk Britaniya va Rossiya o'rtasida ziddiyat maydoniga aylangan edi.

Uchinchidan, tajovuz qilishi mumkin bo'lgan davlat Xitoy bu davrda qoloq, yarimfeodal davlat edi. Sin imperiyasi pulga muhtoj, Yevropa mustamlakachi davlatlari Xitoyni yarimmustamlakaga aylantirish jarayoni, Yaponiya bilan ziddiyatlar mavjud⁸ davrda Qo'qonga qarshi harakatlar olib bora olmas edi. Shunday ekan, yuqorida keltirib o'tgan jumlamizdagi Xudoyorxonning fikri to'g'ri, faqat Rossiya bosqini mavjud xolos. Lekin u ham bosqinchi, u ham talonchi. Agar bizning hududlarimizni egallab oladigan bo'lsa, bizning boyliklarimizni o'zlashtirishi muqarar edi va shunday ham bo'ldi keyinchalik. Lekin Xudoyorxon buni o'ylamadi. Ruslarga nisbatan o'zini qaramdek ko'rsatish siyosatini qildi. Bunday qaramlik siyosatiga bir necha misollar keltirsak bo'ladi. Masalan, 1868-yil 13-fevral kuni Xudoyorxon Turkiston general-gubernatori bilan bitim imzolaydi. Unga ko'ra, rus savdogarlari Qo'qon xonligining barcha shahar va qishloqlarida karvonsaroyga ega bo'lish va savdo agentliklarini tuzish huquqini oldilar⁹. Rossiya manfaatlarini ko'zlab tuzilgan bu bitim esa xalq orasida "xon mamlakatni Rossiyaga sotmoqchi", degan fikrni uyg'onishiga sabab bo'ldi. O'zi bu davrda tog'lardan ariqlar orqali oqib keladigan suvga ham soliq solingan. Faqat nafas olinayotgan havodan soliq olinmagan xolos¹⁰.

O'zi shunday og'ir sharoitdagi Xudoyorxonning bunday harakatlari xalqning sabr kosasini to'ldirdi. Xudoyorxonning bu tajovuzlari va Rossiyaning xizmatkoriga aylanishi xalq bilan birga harbiylar va amaldorlarni ham xalq xoini Xudoyorxon va Rossiyaga qarshi kurashishga undadi. Bu xonlikda qo'zg'olonlarga olib keladi va bular mamlakat barqarorligiga katta ta'sir ko'rsatdi. Natijada mamlakatda so'nggi va eng yirik qo'zg'olon yuz berdi. Bu qo'zg'olon 1873-1876-yillarda yuz berib, "Po'latxon ("Mulla Is'hoq Mulla Hasan") qo'zg'oloni" nomi bilan mashhur bo'ldi. Bu qo'zg'olon natijasida Xudoyorxon taxtdan ag'darildi. U qanchalik qo'zg'olonni bostirishga harakat qilmasin, bostira olmadi. U qo'zg'olonni bostirish maqsadida yuborgan barcha yaqinlari qo'zg'olonchilar tomon o'tib ketgan edi. Uning ukasi va o'gillarining undan voz kechishi u uchun ayanchli holat bo'ldi. Natijada taxtdan voz kechib, qochishga majbur bo'ldi. So'nggi umri qiyinchiliklarda o'tdi. Bu uning xalqqa qilgan zulmlariga nisbatan olgan jazosi edi aslida. 1876-yil qo'zg'olon to'liq bostirildi. Bu paytgacha esa ruslar xonlikning barcha viloyatlarini bo'ysundirgan edi. Natijada 1876-yil 19-fevral kuni harbiy vazir D.Milyutin Qo'qon xonligi tugatilib, uning o'rnida Farg'ona viloyati harbiy gubernatorligi tuzilganligini e'lon qildi. Natijada Qo'qon xonligi tarix sahnasidan ketti. Xonlik ichki siyosatida bo'shliqlarning vujudga kelishi va qo'zg'olonlarning ko'payib ketishi natijasida Buxoro amirligi va Xiva xonligini qaram ya'ni protektoratga aylantirgan Chor Rossiyasi Qo'qon xonligini batamom tugatishni afzal ko'rdi.

Xonlik tugatilgan bo'lsa-da, xalqning og'ir ahvoli yaxshilanmadi. Endi imperiya manfaatlariga xizmat qiladigan mahalliy amaldorlar, Mirzo Olim aytganidek malaylar soni ko'paydi. Inoqlar va mingboshilarning soliq yig'uvchilari sobiq xonlikning qishloqlaridan bir yo'la 4 yillik soliqni to'plaganlar. Mirzo Olim bosqinda xonavayron bo'lgan, bor-budidan ayrilgan qishloqlar aholisidan 4 yil uchun oldindan olingan xiroj solig'ining 90% ni mustamlakachilarning malaylari bo'lmish soliq yig'uvchilar o'zlashtirib olganligini ta'kidlab

⁸ Эргашев Ш. Жахон тарихи, Янги давр II . – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2015. – Б. 358.

⁹ Х.Содиқов ва бошқ. Ўзбекистоннинг янги тарихи. – Тошкент: “Шарқ”, 2000. – Б. 146.

¹⁰ Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш: (XVII-XX аср бошлари) // Жамоатчи муҳаррир: М.Саъдий. – Тошкент: “Шарқ”, 1998. – Б. 334.

o'tadi¹¹. Bundan ko'rinib turibdiki, hatto o'zimizdan chiqqan amaldorlar ham xalqning og'ir ahvolini bilib turib ham ularni talaganligini manbalar ochib bermoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xonlikning so'nggi yillarida siyosiy va ijtimoiy ahvoli juda og'ir edi. Bu esa Chor Rossiyasi uchun qo'l keladi va natijada xonlik tugatilishiga olib keladi. Endi mamlakat qaram bo'ldi va xalqning ahvoli yanada og'irlashgan bo'lsa og'irlashdiki, yengillik bo'lmadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. **Скайлер Ю.** Туркистон: Россия Туркистони, Кукон, Бухоро ва Гулжага саёхат кайдлари. / Тарж. Саидбобоев З.А. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2019. – 336 б.
2. **Зиёев Ҳ.** Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш: (XVII-XX аср бошлари) // Жамоатчи муҳаррир: М.Саъдий. – Тошкент: “Шарқ”, 1998. – 480 б.
3. **Мирзоолим Мушриф.** Ансоби ус-салотин ва таворих ул-хавоҳин: “Султонлар насаби ва хоқонлар тарихи” (Куқон хонлиги тарихи). – Тошкент: “Ғафур Ғулом”, 1995. – 128 б.
4. **Ҳ.Содиқов ва бошқ.** Ўзбекистоннинг янги тарихи. – Тошкент: “Шарқ”, 2000. – 464 б.
5. **Эргашев Ш.** Жаҳон тарихи, Янги давр II. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2015. – 406 б.
6. **Муртазаева Р.Х.** Ўзбекистон тарихи II жилд. – Тошкент: 2015. – 457 б.
7. **Жувонмардиев А.** XVI-XIX асрларда Фарғонада ер-сув масалаларига доир. – Тошкент: “ФАН”, 1965. – 184 б.

INNOVATIVE
ACADEMY

¹¹ **Ҳ.Содиқов ва бошқ.** Ўзбекистоннинг янги тарихи. – Тошкент: “Шарқ”, 2000. – Б. 189.